

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA
BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“VETERINARIYA, CHORVACHILIK, BIOTEXNOLOGIYA,
IQTISODIYOT VA AGROIQTISODIYOT SOHALARIDAGI
DOLZARB MASALALAR YECHIMIGA INNOVATSION
YONDOSHUV” mavzusidagi**

**MAGISTRLAR VA IQTIDORLI TALABALARNING
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

T O' P L A M I

2022-yil 27-28-may



mumkin. Gemoglobin miqdori ham tadqiqotlarning bu muddatlarida 2,95-10,79% gacha kamaydi, ammo tajribaning oxirgi kunlariga (15 kunda) kelib 3,92% ga ko'tarilganligi qayd etildi. Gemoglobinlar miqdorining maksimal pasayishi tajribaning dastlabki 3 va 6 soatlarida kuzatildi, ya'ni bu miqdor mutanosib ravishda 10,79; 7,85; 6,87; va 5,89 % ga to'g'ri keldi. Leykotsitlar miqdori tajribaning 1-kuni 2,14-6,68 foizga ko'paydi, maksimal o'zgarishlar 6,12 va 24 soatdan keyin kuzatilib tajriba oxirida oldingi holatiga qaytdi. (1-2-3 jadvallar)

Magestrofanni 3 marotaba 10 mg/kg dozada qo'llanilgan keyin (uchinchi tajriba guruhi), qonning shaklli elementlari miqdoriy ko'rsatkichida eng ahamiyatli o'zgarishlar kuzatildi. Tajribaning oxirida eritrotsitlar soni hamda gemoglobinlarning miqdorining sezilarli kamayishi va leykotsitlar sonining esa sezilarli ko'payishi aniqlandi, ya'ni eritrotsitlar soni 14,47-20,13% kamaydi, gemoglobin miqdori 16,0-22,65% ga pasaydi, leykotsitlar sonining oshishi 9,24-19,30% (R 0,02) ga teng bo'ldi. (1-2-3 jadvallar)

Eng kam va o'rtacha dozalarda qo'llanilganda (ya'ni 1-3 mg/kg) hayvonlar qoni ko'rsatkichlari deyarli bir xil yo'nalishda, lekin turli xil darajalarda o'zgarganligini qayd etildi.

Magestrofanning yuqori dozada qo'llanilganda esa (10 mg/kg) qon ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar aniqlandi, jumladan eritrotsitlar soni va gemoglobinning miqdoriy foizi sezilarli kamaydi, leykotsitlar soni esa aksincha oshdi. Demak, magestrofan preparati hayvonlar qonining morfologik ko'rsatkichlariga maksimal dozalarda sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatar ekan.

Xulosalar:

1. Magestrofan kichik dozalarda (1 mg/kg) sigirlar qonining morfologik ko'rsatkichlariga (eritrotsit va leykotsitlar soni, gemoglobin miqdori) ta'siri deyarli sezilmaydi.
2. Magestrofan o'rta dozalarda (3 mg/kg) sigirlar qonining morfologik ko'rsatkichlariga (eritrotsit va leykotsitlar soni, gemoglobin miqdori) qisman ta'sir ko'rsatadi.
3. Magestrofan katta dozalarda (10 mg/kg) sigirlar qonining morfologik ko'rsatkichlariga (eritrotsit va leykotsitlar soni, gemoglobin miqdori) zaharlovchi-toksik ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Соколов В.Д. Фармакология. Санкт – Петербург.2010
2. Famonov N.O. "Veterinariya amaliyotida yangi uterogen moddalarni qo'llash". Jurnal "Zooveterinariya" Toshkent. 2009
3. Xoliqov A.A. " Sigetin preparatining farmakologik qonuniyatlari " Avtareferat. Samarqand. 2001
4. Порфирев И.А. Бесплодие высокопродуктивных молочных коров. Ветеринария.- 2009.- № 8.- С. 37-40.

UDK :619:615:636.2:618

NOSPETSIFIK STIMULLOVCHI VOSITALAR VA GONADOTROP PREPARATLARNI MAHSULDOR SIGIRLAR REPRODUKTIV ORGANLAR FUNKSIYALARIGA TA'SIRI

Mustaqil tadqiqotchi: Abdumalikova M.Q.,
Ilmiy rahbar: v.f.n., dotsent Djumanov S.M.

Annotasiya: Maqolada mahsuldor sigirlar reproduktiv organlar funksiyalariga nospetsifik stimullovi vositalar va gonadotrop preparatlarni ta'siri, xususiyatlari hamda turli xildagi bepushliklarni kelib chiqish sabablari va oldini olish choralari hamda mineral va vitamin almashinuvining buzilishi, organlar funksiyalariga tasiri keltirib o'tilgan.

Kalit soʻzlar: SJK, bepustlik, follikula, gonadotropin, lyuteinizatsiya, gravogormon, morfofunktsional, bachadon, qalqonsimon bez, stimulyasiya, ovulyasiya, progesteron, jinsiy bezlar, sariq tana, tuxumdondan sklerozi, reproduktiv tizim.

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda chorvachilikni xususiy mulkchilik asosida rivojlantirish orqali ichki bozorni go'sht, tuxum, sut va baliq mahsulotlari bilan barqaror to'ldirish va aholining turmush darajasini oshirishga katta e'tibor qaratilgan. Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innavatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzuluksiz ta'minlash hamda chorvachilikga ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida prezidentimiz tomonidan 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576 son qarorida ko'rsatib o'tilgan.

Unga ko'ra chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fuqarolar bilan hamkorlikni ta'minlash, chorvachilikning barcha tarmoqlari va nasilchilik sohasini rivojlantirishni olib borish va muamolari yechimini topish, mahsuldorlikni oshirish, ozuqabob ekinlarni yetishtirish, mahsulot ishlab chiqarish va naslchilik seleksiya amaliyotida yangi ilmiy tadqiqot natijalarni va innavatsion ishlanmalarni yo'lga qo'yish borasida ko'rsatmalar berilgan. Bundan tashqari davlat jamg'armasi hisobidan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va quyonchilik komplekslarini qurish, yirik va mayda shoxli nasldor chorva mollarni xarid qilish, chorva mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha loyihalarni ko'rsatib o'tgan. 2020-yilda sotib olinadigan nasldor qora mollar uchun, respublikamiz hududidagi naslchilik xo'jaliklaridan sotib olish uchun 10 mlrd, xorijiy davlatlardan import qilish uchun 40 mlrd so'm, qo'y- echkilar uchun 6 mlrd so'm subsidiya puli belgilab qo'yilgan.

2020 - yil 1- iyulga qadar 2021-2022-yillarda respublikada faoliyat yuritayotgan naslchilik xo'jaliklari tomonidan sotiladigan va import qilinadigan nasldor qoramollar, qo'ylar va echkilar sonidan kelib chiqib, sonini oshirish uchun mablag'lar davlat hisobidan ajratilishi bo'yicha parametrlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston respublikasining 1995- yilda qabul qilingan "Naslchilik to'g'risida"gi va 2015-yilda qabul qilingan "Veterinariya to'g'risida"gi Davlat Qonunlari, shuningdek, chorvachilik tarmog'ini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish butun agrar tarmoqni rivojlantirish borasida harakatlar strategiyasi shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrda PQ-2460-son "2016-2020 yillar davrida qishloq xo'jaligini isloh qilishni chuqurlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2016-2020 yillarda qoramollar bosh sonini qo'shimcha 3165 ming boshga, qo'y va echkilar bosh sonini 4281 ming boshga va parrandalar sonini 31200 ming boshga oshirish vazifalari belgilandi. Mahsuldor sigirlar reproduktiv organlar funksiyalarini buzilishi qishloq xo'jaligiga katta zarar keltirishi, natijasida nasldor sigirlarning bosh sonini, sutini va sut mahsulotini kamayishiga sabab bulmoqda.

Chorvachilikda reproduktiv organlar funksiyasini buzilishi natijasida yetkazilgan zarar ko'pincha boshqa barcha kasalliklardan kelib chiqadigan zararlardan oshib ketmoqda, shuning uchun ham reproduktiv organlar kasalliklariga qarshi kurashish qishloq xo'jaligi amaliyotining eng dolzarb vazifasi hisoblanadi. Respublikamiz xo'jaliklariga turli zotdagi sigirlar keltirilmoqda. Bu hayvonlarning respublikamiz iqlim sharoitiga moslashuvining asosiy muammolaridan biri ularning akusherlik va ginekologik kasalliklari bo'lib, ularning asosiy qismini reproduktiv funksiyalarni buzilishi tashkil etadi. Xususan, mahsuldor sigirlar o'rtasida bepustlik va tuxumdondan kasalliklari ko'p bo'lganligi sababli aholi va fermer xo'jaliklari sharoitida bo'lgan sigirlarning mahsuldorligi keskin pasayib, yuqori mahsuldor hayvonlardan foydalanish kamayib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Qishloq xo'jalik hayvonlarining ko'payish jarayonlarini boshqarish muammosi gonadotropinlar va tuxumdondan gormonlarini kashf etilishi va ishlab chiqarishda ishlatilishi bilan ma'lum bir asosga ega bo'ldi. Ayni paytda gonadotropinlarni, xususan SJK ni ishlab chiqarish sharoitida keng qo'llash ko'pincha kerakli yuqori samarani bermadi. Ko'p

hollarda SJK ni sigirlar tuxumdoniga ta'siridan so'ng, follikulalarning ko'plab lyuteinizatsiyasi yoki uzoq muddatli bepushtliklarga sabab bo'ladigan kistalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Keyingi paytlardagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, gonadotrop preparatlar va SJK ning turli xil samaradorligi bu uning biologik xususiyatlarining o'zgaruvchanligiga, ya'ni follikulani stimulyasiya qiluvchi va lyuteinlashtiruvchi gormonlar nisbatiga bog'liq, bu haqda o'z vaqtida B. M. Zavadovskiy tomonidan ham ta'kidlab o'tilgandi [1]. Ishlab chiqarish tadqiqotlarida SJK ning turli xil dozalar va seriyalaridan foydalangan holda mingdan ortiq sigirlar bo'yicha eksperimental va ishlab chiqarish tadqiqotlari o'tkazilgan, gravogomon va progesteron turli xil jinsiy funksiyalari bilan gormonal dorilarning tuxumdonlar, bachadon, qalqonsimon bezning morfofunktsional holatiga ta'sirini o'rganishga va ularning sigirlar bepushtligida yuqori biologik, terapevtik va iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligini, shuningdek, ulardan foydalanishning maqbul dozalari, qo'llanishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan ko'rsatmalari va nojuya ta'sirlarini aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, SJK va gravogormonning follikulani stimulyasiya qiluvchi ta'siri reproduktiv tizim holatidan qat'i nazar mustaqil ravishda o'zini namoyon qiladi, gonadotropinlarning ovulyasiyaga ta'siri tuxumdonlar, bachadon, qalqonsimon bezning dastlabki funksional holati va birinchi navbatda follikulalar shilliq qavatining qobiq qismi biriktiruvchi to'qima elementlarining morfofunktsional holatiga gonadotropin gormonlarining o'ziga xos ta'sirga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, tuxumdonlarning gipofunksiyasida, jinsiy bezlarning biriktiruvchi to'qima elementlari gipoplaziya holatda bo'lganida va endogen stimulyasiya etarli emasligi natijasida, SJK dan 2,5-3 ming birlikdagi (1 kg vazniga 6 birlik) dozada va gravogormondan 4-5 ming birlikdagi (9 birlik 1 kg vazniga) dozada foydalanish sigirlarda bir yoki ikkita follikulalarning o'sishi, pishishi va ovulyasiyasini ta'minlaydi. Shu bilan birga, qalqonsimon bez giperfunksiya holatiga kiradi va endometriyada proliferativ va sekretor jarayonlar rivojlanadi.

Ishlab chiqarish sharoitida bu bepusht sigirlarning kuyga kelishini va ulami urug'lanishini nazoratdagi sigirlarga nisbatan 70-75% ga oshirish imkonini beradi.

Tuxumdonlarning biriktiruvchi to'qima elementlari morfofunktsional toliqish holatida bo'lganda follikulyar kistalarda ovulyasion ta'sir olish uchun gonadotropinlarni 8-10 ming birlikdagi dozada 18-20 kg tana vazniga yuborish talab qilinadi. Bunday holatlarda gravogormon bilan progesteronni (150 mg) va vitamin E (125 mg)ni birgalikda qo'llash sigirlarni bir-ikki oy ichida davolashga imkon yaratadi.

Tuxumdonlarda follikulalar o'sishi faollashganda persistent sariq tanalar involyusiyasida, jinsiy siklning sariq tanalari yoki homiladorlikda SJK 2-2, 5 ming birlik dozada (kg vazniga 5 birlik dozada) va gravogormonni 3-3,5 ming birlik dozada kiritish (kg vazniga 7 birlik dozada) follikulalar shilliq pardalarining biriktiruvchi to'qimalarida morfogen va qon tomir reaksiyasini kuchaytiradi, Graaf pufakchalarining qo'shimcha etilishini, bachadon va qalqonsimon bezdagi plastik, qon tomir va sekretor reaksiyalarni faollashtirish bilan poliovulyasiya hodisasini ta'minlaydi. Ko'p anovulyasion jinsiy siklli sigirlarga gonadotropin preparatlarini bir oy davomida ko'rsatilgan dozalarda qo'llash urug'lanishni nazoratdagi sigirlarga nisbatan 76 % ga oshirish imkonini beradi.

Jinsiy siklning sariq tanalari homiladorlik, ularning doimiyliigi va lyutein kistalarida, gonadotropinlarning qo'llanilishi dozasidan qat'i nazar, follikulalar ovulyasiyasini ta'minlamaydi. Bunday holda, gonadotropinlarning ta'siri tuxumdonlarning biriktiruvchi to'qima tuzilmalarining sekretor funksiyasini ko'proq rag'batlantirishda namoyon bo'ladi, shu sababli o'sish uchun faollashtirilgan follikulalar qobig'ida lizis hodisalari rivojlanadi, so'ngra morfofunktsional pasayish va tolali o'zgarishlar, granulyozlar reduksiyasi va tuxum distrofiyasi yuz beradi.

Persistent sariq tana va lyuteinli kistalar bilan sigirlar bepushtliklarini davolashda terapevtik samaradorlik gonadotrop preparatlarni 3-4 ming birlik dozada dastlabki 6-7 kunlarda sariq tana

yoki lyuteinli kista invalyusiyasini ta'minlovchi progesterondan 50 mg in'eksiya qilinganda kuzatilishi mumkin. Ishlab chiqarish sharoitida bunday hollarda sigirlarning kuyga va urug'lanishga kelishi nazoratdagi sigirlarga nisbatan 55-60% ga ortadi.

Shuningdek, tuxumdon sklerozida gonadotropinlar follikulani stimulyasiyalovchi va ovulyasion ta'siri o'zini namoyon qilmaydi, bu ularning biriktiruvchi to'qima tuzilmalarining tolali degeneratsiyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Xulosa: Adabiyotlar tahlilidagi tadqiqotlarga asosan, gonadotropik va gestagen gormonal dorilar (SJK, gravogormon, progesteron) tuxumdonlardagi funksional buzilishlarga va reproduktiv organlar uchun juda samarali vosita, shuning uchun bepushtlik va sigirlar qisirligini oldini olish uchun terapevtik va profilaktika choralarining umumiy kompleksida gormon terapiyasi muhim o'rin tutishi kerak degan xulosaga kelish uchun asos buladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dobson H., Smith R.F., Royal M.D., Knight Ch., Sheldon I. The high producing dairy cow and its reproductive performance. *Reprod. Domest. Anim.*, 2007, 42(2): 17-23 (doi:10.1111/j.14390531.2007.00906.x).
2. Lebedev V.A., Lebedeva I.Yu., Kuz'mina T.I., Shapiev I.Sh. Role of metabolic hormones in the regulation of ovarian function in cattle (review). *Agricultural Biology*, 2005, 2:14-22 (in Russ.).
3. Пальчиков М.Ю. Бионормализующее действие препаратов из плаценты человека при ранней стимуляции половой цикличности у коров. Кандидатская диссертация. [Bionormalizing effect of human placenta extract for early stimulation of ovarial cycle in cows. PhD Thesis]. Belgorod, 2005 (in Russ.).
4. Варенников М.В., Ломов А.М., Арт.х В.М., Прытков Ю. А., Лиёпа В.Л. Способ получения биостимулятора из плаценты коров. А.С. 2377999 (РФ) МКІЗ А61К35/50. Всероссийский государственную научно-исследовательский институт животноводства (ВИЖ) № 2007143944/13 [Method for preparation of a biostimulating biological from cow placenta. A.C. 2377999 (RF) MKIZA 61K35/50. All-Russian State Institute of Animal Husbandry (VIZh). № 2007143944/13]. Appl. November 29, 2007. Publ. January 10, 2010 (in Russ.).
5. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. М.: Изд. ООО «Аквариум-Принт», 2005. С. 652-664.
6. Студенцов А.П., Шипилов В.С., Никитин В.Я. и др. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения. Москва, Колос, 2000.
7. Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik, Toshkent, 2018.

UDK:619:618:616.084

KATARAL-YIRINGLI ENDOMETRITLARNI DAVOLASH VA OLDINI Olishni TAKOMILLASHTIRISH

Magistrant: Azimov M.M.,

Ilmiy rahbar: v.f.d., professor Eshburiyev B.M.

Annotasiya: Ushbu maqolada Kataral yiringli endometritlarni davolash va oldini olishni takomillashtirishga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bachadon, patologik mikroflora, endokrin, intoksikasiya, laborator tekshirish, mikrob, urug', bakteriya, mikroorganizm, geperimiya, eksudat, modda.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizning chorvachilik yaxshi rivojlangan fermer xo'jaliklarida sogin sigirlar orasida, ayniqsa chetdan keltirilayotgan mahsuldor sigirlarda Kataral-

MUNDARIJA

Yunusov X.B., Daminov A.S. Ilm taraqqiyotiga katta imkoniyat 3

**1. VETERINARIYA SOHASIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR VA MUAMMOLAR - YUQUMLI, YUQUMSIZ VA PARAZITAR
KASALLIKLARNI OLDINI OLISH VA SAMARALI DAVOLASH BO'YICHA
ERISHILGAN YUTUQLAR HAMDA MAVJUD MUAMMOLAR**

1. Raxmonov D.A., Usmanova L., Asqarov S.S., Ro'ziqulov N.B. Qorako'l sovliqlami dispanserlash natijalari.....	5
2. Axatov Q., Isaev M. Magestrofanni sigirlar qonining ayrim morfologik ko'rsatkichlariga ta'siri.....	8
3. Abdumalikova M.Q., Djumanov S.M. Nospetsifik stimullovcchi vositalar va gonadotrop preparatlarni mahsuldor sigirlar reproduktiv organlar funksiyalariga ta'siri.....	10
4. Azimov M.M., Eshburiyev B.M. Kataral-yiringli endometritlarni davolash va oldini olishni takomillashtirish.....	13
5. Bahridinov Q.S., Bakirov B.B. Buzoqlarda aralash pnevmoniyaning davolash usullarini takomillashtirish (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	15
6. Bozoraliyeva N., Ulasheva L., Aslanova Yu. Broylar jo'jalar bezli oshqozonning postnatal morfogenezi (<i>Adabiyot ma'lumotlari asosida</i>).....	18
7. Davlatov K.M., Bektanova H. Norboyev.Q.N. Buzoqlar d gipovitaminozining sabablari va oldini olish (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	21
8. Egamberdiyeva Z.S., Eshburiyev B.M. Sigirlarda tug'ruqdan keyingi septisemiyaning sabablari, rivojlanish mexanizmlari, diagnostikasi, davolash va oldini olish usullari (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	23
9. Elmatov Sh.I., Baxtiyorov I.I., Bahramov J.A., Mamatova Z.N. Asalarichilikda salmonellyozni oldini olishda probiotiklarni qo'llash.....	26
10. Qilichov A.F., Elmurodov X.D., Sharapov M.A. Xlorella suv o'tlarining rivojlanish denamikasi va uning parrandachilik hamda baliqchilikda ahamiyati.....	30
11. Erbutayev Sh.X., Eshburiyev S.B. Asalarilarning kimyoviy moddalardan zaxarlanishlari oqibatida kelib chiqadigan salbiy oqibatlar.....	32
12. Ibroximov S.O., Mirzakosimova K., Siddiqov B.T., Botirova Sh.A. Sigirlarda tuxumdonlar gipofunksiyasining epizootologiyasi (<i>Adabiyotlar tahlili</i>).....	36
13. Аззамов С.З., Сафаров М.М., Сафаров М.Б. Голштин зотли сермахсул сигирларнинг Самарканд вилояти шароитидаги клиник ва қоннинг айрим морфологик кўрсаткичлари.....	39
14. Isoqulova M.T., Nurullayev A.A. Xlorofos preparati qo'llanilgan qoramollarning gemotologik ko'rsatkichlari.....	41
15. Kokilov B.R., Djumanov S.M. Tug'ruqdan keyingi kasalliklarni davolashda farmakologik vositalar samaradorligi (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	43
16. Majidov S., Nasimov Sh. Kulangi zotli parrandalarda gelmintokoprologik tekshirish.....	46
17. Mamatqulov A., Yulchiyev J.B. Yirik shoxli mollarda katta qorin fistulasini o'rnatishning ahamiyati va texnikasi.....	48
18. Murodillayev Sh.H., Shomurodov M.A., Xoliqov A.A. Estromaxni sigirlar qonining ayrim morfologik ko'rsatkichlariga ta'siri.....	52
19. O'ktamov A.A., Eshburiyev B.M. Buzoqlarda uvizli toksikoz kasalligini davolash va oldini olish (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	55